

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 338.486:336(575.1)

RAVSHANOV TO‘YLI GULMURODOVICH

**TURIZM SOHASINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini
olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy maslahatchi: Aliyeva Mahbuba Toychievna,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent - 2025

MUNDARIJA

	KIRISH	3-16
I-BOB	TURIZM SOHASINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	
	1.1-§. Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	17-24
	1.2-§. AQSh va Kanada mamlakatlarida turizm sohasini moliyalashtirishning tahlili	25-32
	1.3-§. Misrda turizm sohasini rivojlantirishda moliyaviy ko‘maklarning ahamiyati	33-57
	1.4-§. Misrda turizmni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish va kreditlash amaliyoti	58-63
	Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	64-64
II-BOB	MAMLAKATIMIZDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-METODOLOGIK JIHA TLARI	
	2.1-§. Turizm sohasini rivojlantirishda hududiy dasturlarni ishlab chiqishning uslubiy asoslari	65-83
	2.2-§. Ichki turizmni rivojlantirishda kreditlash mexanizmlarning ahamiyati	84-97
	2.3-§. Turizm sohasini raqamlashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish	98-106
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	106-107
III-BOB	TURIZM SOHASIDA MOLIYAVIY RESURLARDAN FOYDALANISHNING HOLATI VA TAHLILI	
	3.1-§. Turizm sohasida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash asoslari	108-126
	3.2-§. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ustuvor yo‘nalishlar	127-136
	3.3-§. Joylashtirish vositalarini tashkil etgan tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari	137-153

IV- BOB	Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	154-154
	MAMLAKATIMIZDA TURIZM SOHASINI	
	QO'LLAB-QUVVATLASHNI	
	TAKOMILLASHTIRISH	
	4.1-§. Turizm qo'mitasi huzurida budjetdan tashqari turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish asoslari	155-168
	4.2-§. Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan samarali foydalanish yo'nalishlari	169-180
	4.3-§. Turizm sohasini rivojlashtirishda moliyalashtirishning ekonometrik istiqbollari	181-199
	To'rtinchi bob bo'yicha xulosalar	200-200
	XULOSA VA TAKLIFLAR	207-203
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	204-209
	ILOVALAR	

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Turizm sohasining rivojlanishiga tabiiy ofatlar, moliyaviy inqirozlar, davlatlararo nizolar hamda boshqa salbiy omillar tez-tez ta'sir etib turadi. Bunday vaqtlarda turizm va unga yondosh tarmoqlar haqiqatda o'zining eng qiyin davrlarini boshidan o'tkazadi. Xususan, "so'nggi yillarda kuzatilgan holatlar sababli butun dunyo YaIM o'sishi 3,4 foizga va yalpi mahalliy mahsulotlar 6,7 foizga, savdo aylanmasi 12,9 foizga hamda turizm sohasi 2,93 foizga kamaygan bo'lsa, ishsizlik darajasi 5,8 foizga ortgan. Ishsizlik darajasining ortishi hamda aholi daromadlarining kamayishi natijasida dunyo miqyosida yana 131 million kishi kambag'allar darajasiga tushib ketgan"¹. Mazkur murakkab vaziyatlarni bartaraf etish maqsadida, davlatlar tomonidan turizm sohasini qo'llab-quvvatlash uchun grantlar, subsidiyalar, ssuda va boshqa turli shakldagi yordamlar ajratish bo'yicha moliyaviy mexanizmlar ishlab chiqiladi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda turizm sohasini moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali tarmoqni yanada diversifikatsiya qilish, hududiy dasturlarni ishlab chiqishda davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lardan oqilona foydalanish, samarali targ'ibot ishlarini tashkil etish hamda turizm xizmatlari eksportini kengaytirishga katta ahamiyat berilib, ushbu dissertatsiya ishi ulardan samarali foydalanish bo'yicha amaliy ishlarni jadallashtirish va ularni takomillashtirish zaruratini asoslaydi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun har bir hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turizmni rivojlantirish borasida hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda ularning turistik salohiyatini xorijiy mamlakatlarda targ'ib qilish lozim hisoblaniladi.

O'zbekistonda turizm tarmog'ini yanada rivojlantirish, xorijiy turistlarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yangi turizm xizmatlarini tashkil etish va mavjudlarini diversifikatsiya qilish, sohani raqobatbardosh tarmoqlardan biriga

¹ Jahon banki guruhining rasmiy sayti – <https://www.worldbank.org/>

aylantirish hamda eksport hajmini ko‘paytirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmonida “turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish” strategik vazifa sifatida belgilangan². Shu jihatdan tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish, “Ko‘hna tarix durdonalari” milliy dasturini ishlab chiqish hamda uning doirasida madaniy meros obyektlari restavratsiya qilish, yodgorliklarda “ochiq osmon muzeylari”ni tashkil etish, turizm klasterlarini tashkil etish, mehmon o‘rinlari sonini kamida 2 barobarga oshirish, tog‘li hududlarda 25 ta dor yo‘li qurish, turizm mahallalari sonini 175 taga yetkazish, xorijiy turistlar uchun barcha xalqaro aeroportlarda respublikadan sotib olingan va rasmiylashtirilgan mahsulotlar uchun “tax free” tizimini joriy etish muhim vazifalar hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda turizm sohasini iqtisodiyotning muhim strategik tarmog‘i sifatida yanada rivojlantirish, sayyohlar oqimini keskin oshirish, yangi turizm obyektlarini tashkil qilish hamda sohadagi tadbirkorlarni qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash talab qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil-28-maydagi PF-6002-son “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-son “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 18-fevraldagi

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

PF-75-son “Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.